



TA'MINOT ZANJIRIDA BARQAROR VA UZLUKSIZ OPERATSIYALARNI TA'MINLASHNING ZAMONAVIY MODELLARI

Odiljon Karimovich Iminov

iqtisod fanlari doktori, professor,

Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabining

“Biznesni boshqarish va tadbirkorlik (MBA)” kafedrası.

Annotatsiya: *Maqolada ta'minot zanjirida barqaror va uzluksiz operatsiyalarni ta'minlashning zamonaviy modellari tahlil qilinib, ta'minot zanjirining boshqaruv mexanizmlari yoritilgan. Tadqiqotda zamonaviy modellarning samaradorlik, shaffoflik, xarajatlarni kamaytirish, ekologik mas'uliyat va mijoz ehtiyojlarini qondirishdagi roli tahlil qilingan. Maqola zamonaviy boshqaruv yondashuvlari yordamida ta'minot zanjirlarining barqarorligini oshirish usullarini ochib beradi.*

Kalit so'zlar: *Ta'minot zanjiri, barqaror rivojlanish, raqamli ta'minot zanjiri, integratsiyalashtirilgan ta'minot zanjiri, logistika optimallashtirish, operatsion barqarorlik, xarajatlarni boshqarish.*

“Ta'minot zanjiri - bu uch yoki undan ortiq iqtisodiy birliklar (tashkilotlar yoki shaxslar) bo'lib, ular mahsulotlar, xizmatlar, moliya yoki axborotning manbadan iste'molchigacha bo'lgan tashqi va ichki oqimlarida bevosita ishtirok etadi”⁹⁷. Ta'minot zanjiri boshqaruvi - bu bozor ehtiyojlari va mijozlarga xizmat ko'rsatish talablarini hisobga olgan holda yetkazib beruvchilar, ishlab chiqaruvchilar, vositachilar va sotuvchilarning samarali integratsiyasini ta'minlaydigan boshqaruv yondashuvlari va axborot texnologiyalari vositalari to'plamidir.

Ta'minot zanjirini boshqarish – bu murakkab tashkiliy jarayon bo'lib, uning asosiy maqsadlari mijoz ehtiyojlarini qondirish, moddiy xarajatlarni kamaytirish, daromadni oshirish, operatsiyalarni optimallashtirish, elektron tijoratni rivojlantirish, raqobatbardoshlikni shakllantirish hamda korxona samaradorligini va natijaviyligini oshirishdan iborat⁹⁸. Ish jarayonining aynan mana shu jarayonda tashkil etilishi kerakli mahsulotning kerakli vaqtda, kerakli joyda va minimal xarajatlar bilan mavjudligini ta'minlaydi.

Quyida zamonaviy, yuqori samarali va barqaror ta'minot zanjirlarini qo'llab-quvvatlovchi eng dolzarb modellar va yondashuvlarini ko'rib chiqamiz.

Barqaror ta'minot zanjiri modeli. Barqaror ta'minot zanjirlari tashqi omillarning biznes samaradorligiga ta'sirini kamaytiradi va tiklanish tezligi va sifatini yaxshilaydi.

⁹⁷ Харрингтон Дж., Эсселинг К.С., Ван Нимвеген Х. Оптимизация бизнес-процессов. Документирование, анализ, управление, оптимизация. – Санкт-Петербург: Азбука, 2002. – С. 14.

⁹⁸ Пилипишина А.Э. Управление цепью поставок предприятия – участника ВЭД. // Большая студенческая конференция: сборник статей VIII Международной научно-практической конференции. – Пенза: 2024. – С. 48.

Barqaror rivojlanish orqali kompaniyalar mijozlarning ehtiyojlariga tezda javob berishlari va aylanma mablag'lar va xarajatlarni nazorat qilish bilan birga yuqori darajadagi xizmatlarni taqdim etishlari mumkin. Barqaror va uzluksiz operatsiyalarni ta'minlash va foydani maksimal darajada oshirish uchun barqaror ta'minot zanjirining quyidagi asosiy tamoyillariga tayanish tavsiya etiladi: 1) global logistika tarmog'ini qayta ko'rib chiqish va modernizatsiya qilish; 2) tegishli ta'minot zanjiri parametrlarini yaratish; 3) yetkazib beruvchilarni maqsadli tarzda boshqarish; 4) tizimli rejalashtirish; 5) xavflarni kompleks tarzda boshqarish.

Raqamli ta'minot zanjiri modeli. Raqamli ta'minot zanjirini samarali boshqarish modeli kompaniyalarga o'z resurslaridan maksimal darajada foydalanish imkonini beradi. Raqamli ta'minot zanjirini faoliyatga muvaffaqiyatli tatbiq etish jarayonlarning shaffofligi, operatsion barqarorlik va yuqori xizmat ko'rsatish darajasi, xarajatlarni sezilarli darajada kamaytirish kabi afzalliklarni o'z ichiga oladi.

Raqamli ta'minot zanjiri to'liq integratsiyalashgan ekotizim bo'lib, barcha ishtirokchilar uchun shaffof jarayonlarni ta'minlaydi. Integrated Business Planning – talab, taqsimlash, ishlab chiqarish va xaridlarni rejalashtirishda qarorlar qabul qilishni qo'llab-quvvatlaydi. Yard Logistics Management – ombor va transport hududlarini real vaqtda boshqarish va yuk tushirishni optimallashtiradi. Transportation Management – yuk tashishni rejalashtirish, xarajatlarni boshqarish va me'yoriy talablar bilan moslashni ta'minlaydi. Extended Warehouse Management – ombor va logistika markazlarini avtomatlashtirib, resurslardan samarali foydalanishni va saqlashni optimallashtiradi. Production Planning and Management – qisqa va o'rta muddatli ishlab chiqarish rejalarini yaratish va resurslardan optimal foydalanishni ta'minlaydi. Serialization Control – mahsulotlarni seriyali raqamlar orqali kuzatish, belgilash va normativ hisobotlarni soddalashtiradi.

Barqaror rivojlanishga yo'naltirilgan ta'minot zanjiri modeli. Barqaror ta'minot zanjiri ekologik mas'uliyat, etika va ijtimoiy javobgarlik tamoyillariga, jumladan, bir-birini to'ldiruvchi kommunikatsiyalar va mahsulotlarni qayta ishlashga asoslangan. Bunday zanjirlarni ishlab chiqishda atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirish va barcha elementlarning samaradorligini oshirishga alohida e'tibor qaratiladi. Konsepsiya ekologik toza materiallardan foydalanish, resurslarni tejaydigan texnologiyalar va kamaytirishni o'z ichiga oladi.

Lean ta'minot zanjiri boshqaruvi (LSCM) - bu yetkazib beruvchilardan mijozlarga tovarlar va xizmatlar oqimini tashkil qilishning strategik yondashuvi bo'lib, mijoz uchun qiymatni maksimal darajada oshirish maqsadini ko'zlaydi. LSCMning asosiy vositalari va usullari qatoriga quyidagilar kiradi: Value Stream Mapping (VSM), Kanban, Just-in-Time (JIT) Production, Total Quality Management (TQM), Continuous Improvement (Kaizen), Lean Six Sigma. Ushbu vositalar yo'qotishlarni aniqlash va bartaraf qilishga, mahsulot sifatini yaxshilashga va umumiy ta'minot zanjiri samaradorligini oshirishga yordam beradi.



Agile Supply Chain ta'minot zanjiri. Bizneslarga resurslarni samarali yo'naltirish, inventarizatsiyani boshqarish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish imkonini beruvchi ilg'or jarayonlar majmuasidir. U kompaniyalarga mahsulot va materiallar ishlab chiqarilishini mijoz talabiga muvofiq nazorat qilish imkonini beradi. Bu jarayon kompaniyalarga mahsulot qachon kerakligini bilish va unga moslashish imkonini beradi, ortiqcha yoki ishlab chiqarishdan kelib chiqadigan isrofgarchilikni kamaytiradi.

Integratsiyalashgan ta'minot zanjiri modeli. Ta'minot zanjiridagi integratsiya – bu barcha ishtirokchilar o'rtasidagi o'zaro ta'sir jarayoni bo'lib, u ishlab chiqarish-texnikaviy aloqalarni kuchaytirish, resurs va kapitalni birgalikda ishlatish hamda umumiy iqtisodiy faoliyatni samarali amalga oshirish uchun barqaror va qulay hamkorlik muhitini yaratishga yo'naltirilgan⁹⁹. Ta'minot zanjiri integratsiyasi biznes jarayonlarini shaffoflik va harakatlarning izchilligini ta'minlash, xarajatlarni kamaytirish, moslashuvchanlikni oshirish, xavflarni samarali boshqarish va raqobatbardosh ustunliklarni mustahkamlashga qaratilgan yagona tashkiliy tizimga birlashtirishni anglatadi.

Ta'minot zanjiri boshqaruvi zamonaviy biznesning samaradorligini ta'minlashda markaziy rol o'ynaydi. Kompaniyalar xavflarni kompleks nazorat qilish va tizimli rejalashtirish tamoyillariga tayanadilar. Raqamli ta'minot zanjiri jarayonlarni shaffoflashtirish, xarajatlarni kamaytirish va xizmat ko'rsatish darajasini oshirish imkonini beradi. Barqaror rivojlanishga yo'naltirilgan zanjirlar ekologik va ijtimoiy mas'uliyatni ta'minlaydi. Integratsiyalashgan yondashuv resurslarni birlashtirish va iqtisodiy samaradorlikni oshirish imkonini beradi. Zamonaviy ta'minot zanjirlarining muvaffaqiyati texnologiyalarni qo'llash, innovatsion yondashuv va barqaror boshqaruv tamoyillariga bog'liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Lee H.L., Billington C. Managing supply chain inventory: pitfalls and opportunities. // Sloan Management Review. 1992, Vol. 33, No. 3. 65–73 p.
2. Lu L.X., Swaminathan J.M. Supply Chain Management. // International Encyclopedia of Social and Behavioral Sciences, 2nd edition. — Oxford: 2015, Vol. 23. 709–713 p.
3. Васильев, Д. И. Управление цепями поставок: учебное пособие. – Москва: Директ-Медиа, 2023. – 128 с.
4. Пилипишина А.Э. Управление цепью поставок предприятия – участника ВЭД. // Большая студенческая конференция: сборник статей VIII Международной научно-практической конференции. – Пенза: 2024. – 282 с.

⁹⁹ Васильев, Д. И. Управление цепями поставок: учебное пособие. – Москва: Директ-Медиа, 2023. – С. 55.



5. Харрингтон Дж., Эсселинг К.С., Ван Нимвеген Х. Оптимизация бизнес-процессов. Документирование, анализ, управление, оптимизация. – Санкт-Петербург: Азбука, 2002. – 171 с.

